

Ona yurting - oltin beshiging

TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI.

Nº 8
(66445)

2004 yil
23 - 29 fevral

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiga
boshtagani

Tatyana LONDONDAN



MARG'ILON QIZINING DO'PPISI

Mening buvim asli Marg'ilondan. Ta'tilda ularni ko'rgani borganimda menga zar do'ppi va «Tong yulduzi» gazetasidan bir dastasini bergen edilar. O'quv yili boshlanib, yana Angliyaga kelganimda men ularni o'zim bilan olib keldim va o'zim yashaydigan xonadon egasi Jonning Luiza degan qiziga sovg'a qildim. Luiza o'ta zamonaviy qiz. U do'ppini juda quvonib qabul qildi. O'sha ondayoq boshiga kiyib oldi. Shushu Luiza do'ppini boshidan qo'ymaydi. Ma'lumki, xorijda qo'l mehnati qadrlanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'zbek do'ppisini kiymoqchi bo'lgan chet ellik dugonalarim ko'paymoqda. Endi yana O'zbekistonga borish imkoniyati bo'lsa, albatta, atlasu adreslardan, iroqi do'ppilardan ko'proq olib kelaman. Hozircha ularga gazetalardan ulashib, o'zbekcha maqolalarni inglizchaga tarjima qilib beryapman.

Tatyana KARIMOVA, Buyuk Britaniya.

MAHALLA OQSOQOLIDAN TILAGANIM

Assalomu alaykum, qadrdomim «Tong yulduzi»! Odamning yuzi ostobdan issiq, deyishadi. Shuning uchun ham mahallamiz nomini ochiq yozmay, u yerdagi kamchiliklarni yozyapman. Ko'chalarimiz asfaltlanmagan. Gullar ekish uchun joylar ochilmagan. Agar shunday bo'lsa, biz o'quvchilar ham gul urug'larini yig'ib, hammayoqni gulzor qilib tashlardik. Qishlog'imizda iqtidorli o'g'il-qizlar juda ko'p. Afsuski, ularga yetarli shart-sharoitlar yaratilmagan. Bolalar uchun hech qanday to'garaklar yo'q. Sport maydonchalar, o'yingohlar, sport zali haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bolalar duch kelgan joyda futbol o'ynashadi. Qishlog'imizdagagi yagona kutubxona ham juda tor, kitoblar soni ham kam. Oqsoqolimiz esa bular haqida umuman bosh qotirmaydi.

Tengdoshlarimning «Obod mahalla yili»da mahallalarda olib borilayotgan ibratli ishlar haqidagi maqola va xabarlarini o'qib, ularga juda havasim keladi.

Umid qilamizki, oqsoqolimiz tanqidimizdan to'g'ri xulosa chiqarib, hech bo'lmagandan ko'ra kech bo'lgani afzal, qabilida ish tutsalaru, o'tgan yili amalga oshirolmagan ishlarini «Mehr va muruvvat yili»da amalga oshirsalar. Axir, ezgulikning erta-kechi yo'q, deb bejiz aytilmagan-ku?!

Salom bilan 7 - sinf o'quvchisi MANZURA,
Toshkent viloyati, Ohangaron tumani, Sanam qishlog'i.



Biz bolalarni, kelajagimiz egalari, deya ta'riflashadi. Afsuski, bu gaplar bizning qishlog'imizda nomigagina aytildi. Chunki biz uchun bu yerda hech qanday sharoit yaratilmagan. Qolaversa, Bekmurodovul deb nomlangan

BEKMURODOVULDAN

XAT

qishlog'imizda maqtaydigan narsaning o'zi yo'q. Sport zallari, maydonchalar qurilmagan. Gaz yo'q. Ichimlik suvi keltirilmaganligi bois qishlog'imizning o'rtasidan oqib o'tadigan kanaldan suv ichishga majburmiz. Lekin hech kim, bu suv ichish uchun yaroqli, deb kafolat bermaydi.

Xullas, shunaqa gaplar. Biz qishloq yoshlari ham

zamonaviy sport zallarida sport bilan shug'ullanishni, yangi kitoblarga boy bo'lgan kutubxonalarda kitobxonlik qilishni, o'zimiz qiziqqan to'garaklarda shug'ullanishni istaymiz. Shoyad, bu istaklarimiz bu yilda amalga oshs...

Zulayho DAVLATOVA,
Toshkent viloyati,
Ohangaron tumani,
Bekmurodovul qishlog'i.

O'ZBEKCHA KIYINAMIZ



Aziz bolalar, siz Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 27-maktabda buyuk bobolarimiz Alisher Navoly va Mirzo Boburning tugilgan kuniga bag'ishlangan bayram kechasi bo'lganidan xabaringiz bor. Bu haqda tengdoshingiz Sevara Mirzayeva gazetamizning o'tgan sonida yozgan edi. Ushbu suratlarni esa tantana qatnashchilari keltirishib, albatta o'z gazetamizda e'lon qiling, deb turib olishdi. Biz rozi bo'ldik. Axir ularga o'z milliy liboslarimiz behad yarashgan edi. Siz nima deysiz?

JAJJI YURAKLARDA VATAN SURATI

Vatanni anglash, u qachondan boshlanadi? Onalarimiz beshikdan desalar, ko'pni ko'rgan otalarimiz o'z tug'ilib o'sgan xonadoni, yaqinlariga bo'lgan muhabbatdan, deydilar. Haq gaplar, shulardan xulosa qiladigan bo'lsak, Vatanni anglash, bir umr unga bog'liq ekanligingni his qilishdan, usiz yashay olmasligini idrok etishdan boshlanadi, nazarimda.



SOG'INAMAN SENI, VATANIM

Garchi ketsam sendan yiroqqa,
Ko'nikmasman aslo firoqqa,
Taskin ayrib dilga-Shiroqqa,
Sog'inaman seni, Vatanim.
Men Boburga avlod bir gulman,
Sen ozodsan, shundan men hurman,
Mangu seni kuylar bulbulman,
Sig'inaman senga, Vatanim.
Sen paxtakor, tanti dehqonim,
Sen g'allakor, sahiy bog'bonim,
Ta'zimimni qabul et, bog'im,
Bir o'g'lingman sening, Vatanim.
Dunyoda el, mamlakatlar ko'p,
Ulug'-ulug' saltanatlar ko'p,
Sen ey, singlim yurt tuprog'in o'p,
U seniki-mening Vatanim.
Alishmasman, uni konga ham,
U bor ekan, yosh ko'nglim to'qdir,
Sen malhamsan jajji jonga ham,
Sendan boshqa Andijon yo'qdir!
Sendan o'zga O'zbekiston yo'q!

Botirjon QO'CHQOROV,
Andijon shahridagi Saida Zunnunova
nomidagi 47-maktabning
6-«V» sinf o'quvchisi.

Go'zal yurtlar ko'pdır dunyoda,
Xalqi ozod, bog'lari chaman.
Barchasidan o'zing ziyoda
Mehring qalbim ildizi-Vatan.

Ha, Chirchiq shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi Shahnoza Ravshanova yozganidek, qalblarimiz ildizi Vatan mehridan kuch oladi. U bor ekan, biz-da hayotmiz, yashnaymiz, gul ochamiz. Shu bois Shahnozaning she'riy xulosasini hayrat va hayajon bilan barchamiz qalban tasdiqlashimiz tayin.

*Mehring ulug' hatto onamdan,
Chunki onam onasi sensan.*

Endigina 6-sinfga qadam qo'ygan o'g'il-qizlarimizning Vatan haqida mehr bilan so'z aytishga bo'lgan jur'ati hammamizni quvontiradi.

Andijonda o'tayotgan bir to'uda ko'cha darvozasi oldida qadrondonlar bilan suhbatlashib turgandik, bir bola kelib odob bilan salom berdi. So'ngra, menga yuzlanib:

- Siz Minhojiddin Mirzo bo'lasiz-a, she'rلаримни ko'rib berasismi?- deb qoldi.

To'g'risi, bolaning dadilligi, o'zini erkin tutishi barchamizni qiziqtirib qo'ysi. Garchi to'xonada bo'lsakda, bolaning shashtini qaytarmaslik uchun she'rларини so'radim.

- Lotinchada... agar qiynalsangiz o'zim o'qib beraqolay...

*...Alishmasman uni konga ham,
U bor ekan, yosh ko'nglim to'qdir.
Sen malhamsan jajji jonga ham,
Sendan boshqa Andijon yo'qdir.
Sendan o'zga O'zbekiston yo'q.*

Hammaning e'tibori biz tomonga qaratildi. She'r tugashi bilan «barakalla o'g'lim» degan olqishlar yangradi. To'y qilayotgan xonodon sohibi, taniqli faylasuf olim Muhibdin Nazarov esa menga qarab, «qalay shoir akasi, bizning mahalladan ham shoir chiqar ekanmi?», deya bolaning boshini siladi. Botirjon Qo'chqorov Andijon shahridagi 47-maktabning 6-«V» sinfida o'qir ekan.

Vatanparvarlik, yurtga fidolik, avvalo uni sevish, ardoqlashdan boshlanadi. Bugun endigina oltinchi sinfda

Ustoz nazari

VATAN MEHRI

Go'zal yurtlar ko'pdır dunyoda,

Xalqi ozod, bog'lari chaman.

Barchasidan o'zing ziyoda,

Mehring qalbim ildizi-Vatan.

Sendan yiroq yurtlarda tushdek,

Uyg'onmoqni istaydi yurak.

Ko'kragimda qamatib qushdek,

Tug'yon urar tuyg'u jonsarak.

Dilni qamrab olar hayajon,

Tinchlik bermas sog'inchim menga,

Murg'ak qalbim, Vatan-onajon,

Go'dak kabi talpinar senga.

Qo'rg'on yasay senga tanamdan,

Jonajonim, jannatga tengsan,

Mehring ulug' hatto onamdan,

Chunki onam onasi sensan.

Shahnoza RAVSHANOVA,
Chirchiq shahridagi

2-ixtisoslashtirilgan maktabning

6-«V» sinf o'quvchisi.

o'qiyotgan qizimiz Shahnozaxon va o'g'limiz Botirjonning mashqlaridagi samimi yuyg'ular farzandlarimiz ko'ngliga ochilishga shaylanayotgan sadoqatning g'unchalaridir.

Tong-ku bu yangi kunning boshlanishi. Subhidam chog'i barcha yulduzlar xira tortib ko'zdan yiroqlashsa-da, tong yulduzi nur taratib turaveradi. Negaki, u boshqa yulduzlarga nisbatan ona yerimizga - siz va bizga yaqinroqdir. Men yaxshi niyat va umid bilan Shahnozaxon va Botirjonning she'riy mashqlarini aynan 6 milliondan ortiq o'quvchi yoshlarning sevimli gazetasini bo'lgan «Tong yulduzi» ga taqdim etarkanman, ularga «hamisha qalbingiz nurli bo'lsin», degim keladi.

Minhojiddin MIRZO,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining
yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinnbosari.

ONAMIZSAN, TABIAT!

Tarbiyalanuvchi yoshlarga yaxshilik fazilatlarini singdirish, tabiatga mehr-muhabbatli qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlariga ularni jalb qilish maqsadida «BIOEKOSAN» Respublika yoshlarining o'quv-uslubiy majmuasi bilan hamkorlikda Yunusobod tumanidagi 31 - Mehrbonlik uyiida «Mehr va muruvvat ezgulikka chorlaydi» deb nomlangan



tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda kichkintoylarning o'zlarini tutishlari, raqslarini ko'rib, ularni aqli zaif deb o'ylama yasi. Qizaloqlarning «Atirgul», «Maroko», «Kechdim» kabi kuylarga zavq bilan qilayotgan nafis harakatlarini kuzatib, balki kelajakda ulardan nafis soha egalari yetishib chiqar, degan xayolga borish mumkin. Ayniqsa, teleekran orqali O'zbekiston ona tabiatni va Buxoro bug'usi haqida lavhalar ketganda bolajonlarning tabiatga naqadar qiziqishlari oshkor bo'ldi. O'zlariku ota-onal mehriga zor, ammo tabiatdan mehrilarini ayamaslikka shay ular.

Tadbirda ishtirot etgan ommaviy axborot

vositalari vakillari so'zga chiqib, bolajonlarga tabiat haqida, tabiat bilan do'stlik haqida so'zlab, she'rлар о'qib berdilar.

Tadbirdan asosiy maqsad, mehr-muruvvat faqatgina yolg'izlar, nogironlargagina emas, hamma-hammaga zarur. Yerdan unib chiqqan giyoh ham, yangigina o'tqazilgan nihol ham, hatto qushlar va jonivorlar ham mehrga, ardoqqa muhtoj. Tog'utoshlar, qurigan daraxtlar, suvsiz daryolar, kichkina anhorlar, xullas, hamma-hammasi ona tabiat mehr-muruvvatiga muhtoj.

Ko'rgazma uchun qo'yilgan rasmlar, gullar «BIOEKOSAN» Respublika o'quvchi yoshlarining o'quv-

majmuasi bila hamkorlikda tashkil etilgan «Atrof-muhitni o'rganish» debo nomlangan

to'garak a'zolarining ishlari ekan. To'garak rahbari uslubchi Xolida Ahmedova bolajonlar uchun to'garakda yaratilgan shart-sharoitlarni so'zlab, endigi maqsadlari «jonli burchak» tashkil qilish ekanligini ta'kidlab o'tdilar.

Ishonamizki, bu o'tkazilgan tadbir, e'tibor ularning murg'ak qalblarida insonlarga nisbatan



ezgulik va rahmdillik, mehr-muruvvatga tashna bo'lgan ona tabiatimizning boyliklarini avaylab-asrashga, atrof-muhit tozaligini muhofaza qilishga qaratilgan sa'y-harakatlardan biri bo'lib qoladi.

Ma'suda
ABDUQODIR qizi.

Mannop MUSAYEV, tarbiyalanuvchi:

- To'garak mening jonli va jonsiz tabiat haqidagi tasavvurimni oshirdi. Biz bolalar tabiatni asrashimiz, yo'q bo'lib ketayotgan, nomlari «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvon va o'simliklarni saqlab qolish uchun harakat qilishimiz kerakligini anglatadi. Bu bizning burchimizdir.

Sevara MIRZAAHMEDOVA, yoshlar yetakchisi:

- Bugungi tadbirdagi raqs dasturlari bilan bolajonlarimiz turli festivallarda, «Mehrjon» tadbirlarida ishtirot etib kelmoqdalar. «Nastarin» guruhimizdagi qizaloqlarning raqs sirlarini o'rganishga bo'lgan intilishlarini ko'rib, ta'sirlanib ketaman. Lekin bu yerda tarbiyalanayotgan bolalarga raqs sirlarini o'rgatish sog'lom bolaga o'rgatishdan bir muncha mushkul. Chunki bolalarimiz jismonan sog'lom bo'lgani bilan, aqlan zaif. Intilganga tole yor, degan aqidaga riosa qilib, qunt bilan ishlab kelmoqdamiz. Qizaloqlarimizni sahnada shod-hurram ko'rsak, barcha mashaqqatlarimiz unut bo'lib ketadi.

YODGORA EMAS, SEVINCH

(hikoya)

Yodgoranining onasi uni dunyoga keltirib oq qafot etdi. Otasi esa undan sal avvalroq bu dunyodan ko'z yumgandi. Shu tariqa jazzi Yodgora g'irt yetimga aylandi-qoldi. Yuzlari oppoq, ko'zlar shahlo shiringina chaqaloqqa hamma achinish hissi bilan boqardi. Yodgoranining yaqinlaridan dasasining akasi Qahhor amakisi qolgandi xolos. U juda badjahl, qahri qattiq inson edi. Bolalarning shovqiniga toqati yo'q, ayniqsa, dam olayotgan paytida halaqit bergenlarni ayamasdi. Bir kuni uqlab yotganida oynasining tagida baqirgan uchun qo'shnining o'g'lini qulog'idan cho'zib, ikki metr nariga uloqtirib yuborgan, bolakayning og'zi-burnini qonga belab, ko'ngli tinchigandi...

Shunday qilib, Yodgora ana shu qahri qattiq insonning qo'lida qoldi. Uning kundalik yemishi bir piyola sut va bir burda non edi. Qorni to'ymay yig'lasa, ovqat o'rniq shapaloq yeyishini yaxshi bilgani uchun boriga qanoat qilishga ko'nikib yashay boshladidi. Besh yoshga to'lar-to'limas ovqat pishirishdan boshqa hamma yumushlar uning zimmasiga yuklana boshladidi. Kir yuvish, supur-sidir, idish-tovoqlarni yuvish kabi kattalarni ham toliqtiradigan yumushlarni Yodgora inqillab-sinqillab bajarardi. Tong saharlab hovli-ko'chalarga suv separ, sovuqdan junjikib, supurib bo'lishi bilanoq amakisi baqirib qolardi:

-Yodi, tezroq nonushta tayyorla, shoshib turibman.

Supurgini bir chetga irg'itib, nonushta tayyorlardi-da, o'zi ham o'tirishi bilan yana tanbeh eshitardi:

-Hoy, suqatoy, kechgacha ovqat yeding-ku, bor, kecha o'rgatganimdek qilib gullarni uzib qo'y, halizamon bozorga olib ketaman.

Qahhor aka shunday deya Yodgora bilan tengdosh Oyдинoy ismli qiziga konfet berib, boshlarini silab qo'yardi. Umrida bir marotabagina, u ham bo'lsa Oyдинoyning tug'ilgan kunida konfetning mazasini tatib ko'rgan Yodgora unga havas bilan qarab qo'ydi-da,

tashqariga chiqib ketdi.

Gullarni uzib, bozorga taxt qilib qo'ydi-da, hech kimga sezdirmay Oyдинoyning xonasiga kirdi. Baxtiga Oyдинoyning zarhal nimchasi ilgichda osilib turar, cho'ntagidan «mana-man» deya konfetning uchi chiqib turardi. Yodgoranining ko'zlar porlab ketdi. Konfetni oldi-yu, o'z xonasiga, aniqrog'i, oqlanmagan, loysuvoq hujrasiga yugurib ketdi. Shosha-pisha konfetni ochib, og'ziga soldi. Lazzatidan rohatlanib, qog'ozining yerga tushib qolganini ham payqamay qoldi.

Dugonalari bilan o'ynab charchagan Oyдинoy xonasiga kirdi-yu, nimchasining cho'ntagiga qo'l soldi. U yerda konfetining yo'qligini bilgach onasiga qichqirdi:

-Oyi, konfetim qani?

Noxushlik ro'y berishini sezgan Yodgora ko'chaga qochib ketdi.

Oyдинoy xuddi ko'ngli sezgandek Yodgoranining xonasiga kirdi. Yerda yotgan qog'ozga ko'zi tushib, dodlab yubordi.

-Dada, Yodi konfetimni yeb qo'yibdi,-deya yig'lab yubordi.

-Yodi, sulloh, qayerdasan?-o'shqirdi Qahhor aka. Baxtga qarshi u ko'rinnasdi.

-Ko'rdingizmi, «yetim qo'zi asrasang, og'iz-burning moy qilar, yetim bola asrasang, og'iz-burning qon qilar», deb bejiz aytilmagan-da,-deya javrardi Manzura kennoyi. -Bu hali boshlanishi. Keyinchalik kattaroq o'g'irlilikka ham qo'l uradi buningiz.

-Nima qil deysan?-so'radi Qahhor aka jig'ibiyron bo'lib.

-Nima qilardingiz, yetimxonaga topshiring. Harna bitta nonho'r kamayadi...

Er-xotin gapni bir yerga qo'yib, ertasi kuniyoq Yodgorani aldab-suldab muruvvat uyiga topshirib yuborishdi. Jiyani yetimxonaga tashlab qaytayotgan

Qahhor aka orqasiga qaradi-yu, darrov ko'zlarini olib qochdi. Chunki darvoza panjaralariga yopishgancha ma'yus turgan Yodgoranining jiqqa yosh to'la ko'zlarida «meni tashlab ketmang, amakjon!» degan ifoda qotib qolgandek edi.

Yodgora muruvvat uyiga tezda ko'nikib ketdi. Ko'plab do'star orttirdi. Ancha to'lishib qolgan yuzlariga biroz qizillik yugurib, shiringina qizaloqqa aylandi.

Bir kuni muruvvat uyiga befarzand bir oila-Malika opa va Ma'ruf akalar kelishdi. Bir chekkada turib, hovlida o'ynab yurgan bolalarni uzoq kuzatishdi.

-Hammalari ham bir-birlaridan shirin bolalar ekan. Qaniydi imkon bo'lsa-yu, ularning barini boqib olsak,-dedi Ma'ruf aka.

Shunda Malika opaning ko'zi bir chetda mung'ayibgina o'tirgan Yodgoraga tushdi.

-Qizim, isming nima?-so'radi muloyimlik bilan.

-Yodgora,-javob berdi qizcha ularga salom bergach.

-Juda shirin qizcha ekansan. Bizga qiz bo'lasanmi?-so'radi uning yuzlarini silab.

-Enagamiz rozi bo'lsalar,-dedi Yodgora quvonib.

-Yur, so'raymiz,- Ma'ruf aka qizchani dast ko'tarib oldi...

Yodgoranining o'tmishi haqida enagalardan so'rab-bilib olgach, uni qiz qilib olishga qaror qilishdi.

Yodgora (darvoqe, uning ismi endi Yodgora emas, Ma'ruf aka bilan Malika opa uning ismini Sevinch deya o'zgartirishdi) yangi oilasida, ota-onasi bag'rida juda baxtiyor hayot kechira boshladidi.

**Lobar AZIZZO'JAYEVA,
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi
30 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.**

Ilk qadam

ZO'R SOVG'A

Sakkizinch mart bugun,
Onajonlar bayrami.
Dilga quvonch baxsh etar,
Bu kunning har bir dami.
Akam, opam va dadam,
Sovg'a tutar onamga.

Ne sovg'a qilayin deb,
Men ham kirdim xonamga.
Biroz muddat fikrlab,
Oxir o'yimga yetdim.
«5» to'la daftaramni,
Onamga taqdim etdim.



DEYMAN

Lola bo'lib ochilsam deyman,
Qir-adirga sochilsam deyman.
O'yinqaroq bir chashma bo'lib,
Ummonlarga qo'shilsam deyman.

Qani endi lochin bo'lsamu,
Samolarda o'ynasam deyman.
Mehnatsevar bolari misol,
Mehnat qilib, to'ymasam deyman.

Qani endi Humo qush bo'lib,
Baxtsizlarga baxt bera olsam.
Qani endi, ko'zlar g'amgin,
Yetimlarni shod qila olsam.

Yurtimizga hasad-la boqgan,
Yomonlarni yo'q qila olsam.
Tinchlik, do'stlik, baxning timsoli,
Kabutarga aylanib qolsam.

Nodiraxon XASANXO'JAYEVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
A.P.Chexov nomli 103 - iqtidorli bolalar
gimnaziyasining 8 - sinf o'quvchisi.

BIZLAR BUTUN OILA...

Biz oilada uch farzandmiz. Men ikkinchi o'g'ilman. Hozir yoshim 13 da. Negadir ota - onam akam Sanjarga menga nisbatan mehribonroqday. Dasturxon boshida o'tirsak ham, ularning ko'zi faqat Sanjarni ko'radiganday: «Ol, Sanjar, nega yemayapsan», deyishgani deyishgan. Yangi kiyim- boshning yaxshisi ham akamga. Xullas,

mening bunday munosabatga keyingi paytlar jahlim chiqadigan bo'lib qoldi. Hatto onamga: «Nima, men sizlarga, o'gaymanmi?» desam, ular «Hammangni barobar yaxshi ko'raman, faqat senga shunday tuyulayotgandir», dedilar. Bir kuni akamni ularga yomon ko'rsatish uchun dadamning cho'ntaklaridan pul qopchiqni sekingina oldimu, akamning sumkasiga solib qo'ydim. Ertalab dadam bizga maktabga borishimiz uchun yo'lkiraga pul bermoqchi bo'ldilar. Cho'ntaklarini kovlagancha, «Suhrob, u yer-bu yerga qaroqchi tushmadimi», dedilar.

So'ngra men ham qopchiqni izlagan bo'ldim-da, mana sumkalarimizni ko'ring, dedim. Akam ham sumkasini ochdi va u yerda turgan qopchiqni ko'rib angrayib qoldi. G'alati bir alfozda: «Tushunmadim, bu qanday qilib mening sumkamga tushib qoldi?», dedi. Dadam xafa bo'lib ketdilar. Maktabga borgunimizcha akam ezilib bordi. Men shu ishni bekor qildim-da, deb o'yladim. Shu kuni darsni oldinroq tugatib, uyga kelayotganimda yo'lda bir-ikki shum bolalar yo'limni to'sib, meni kalaka qila boshlashdi. Men qo'rqib ketdim. Shu payt qayerdandir akam paydo bo'lib qoldi. Bolalarni boplab ta'zirini berdi. Ular biz ham ko'philik ekanligimizni ko'rib qo'chib qolishdi. Biz akam bilan uyga qaytdik. Uyga kelib, o'z ishimdan afsuslanib akamdan va dadamdan ertalabki voqealarni kechirim so'radim.

**Suhrob AHMEDOV,
Buxoro shahridagi 125- maktabning
6- sinf o'quvchisi.**



MUSAFFO OSMON

Bir qaragin, musaffo osmon,
Qushlar uchar go'zal bu hayot.
Eh, yashaging kelar zavq bilan,
Yangrayverar el sevgan bayot.

Bir qaragin, musaffo osmon,
To'lib borar bilagingga kuch.
Intilasan orzular tomon,
Davon osha cho'qqilarni quch.

Bir qaragin, musaffo osmon,
Adirlarda shabboda kezar.
Bu kengliklar, bu aziz tuproq,
Jondan aziz yuragim sezar.

**Zilola OCHILOVA,
Buxoro shahridagi 2-akademik
litsey talabasi.**

ORZU

Men Buxoro viloyatining G'ijduvonida tug'ilganman. Bizning avlod-ajdodlarimiz hunarmand o'tgan. Kulolchilik-nafis san'at. Otam Axtam Muhammedov bu san'at turini yaxshi bilganlari uchun G'ijduvonda milliy kulolchilik zavodini qurdiganlar. Men kulollarning ishlarini soatlab kuzatganman. Qiziq, loydan buyum paydo bo'lsa-ya! U buyumlar tillo, kumush ranglarda jilolansa-ya! Ayniqsa, ulardagi rasmlarni aytmaysizmi? Bu jimjimador rasmlar qalbimda o'zga bir olam kashf etib, ertaklar olamiga yetaklardi. Ularga mahliyo bo'lib vaqt qanday o'tganini sezmasdim. Bolaligimdan mashhur rassom bo'lishni orzu qilganman! Shahrimizdag Mirzo Ulug'bek nomli 3-o'rta maktabni tugatganidan so'ng, Toshkentda oliygohda tahsil oldim. O'qishimni tugatib, G'ijduvondagi Milliy kulolchilik zavodida bosh rassom vazifasiga ishga kirdim. Shu kuni kulolchilik zavodi poydevoriga birinchi g'isht qo'yan dadamning ko'zlaridagi quvonch yoshini ko'rib, o'zimni dunyodagi eng baxtli farzand hisoblagandim. 1981 yildan boshlab «Mushtum» jurnalida ham turli-tuman rasmlar chizib hamkorlik qillardim. Ustozlarim Alijon Xoliqov va O'zbekiston Xalq rassomi, kulol Kamol Turopovdan kasbimning nozik sirlarini qunt bilan o'rgandim. Katta ko'rgazmalarda ko'rinasam-da, matbuotda faol edim. Chizgan suratlarmi bilan kitob zarvaraqlarini bezatishga, gazeta va jurnallardagi maqolalarni jonlantirishga harakat qillardim.

OLTIN BILAN ASAL NEGA AYNIMAYDI?

Olamizda 6 nafar qiz bo'lganmiz. Onam-Nazira opa bizning tarbiyamizga juda katta e'tibor bergenlar. O'zlar o'qimishli bo'lganliklari bois, biz qizlarni ham tinmay bilim olishga undardi. Meni Moskva shahriga Gjal zavodi qoshidagi kulolchi rassomlar o'qishiga yuborayotganlarida: «Qizim, olis joyga ketayapsan. Oltin bilan asal

-Shodlikka to'la nigohingiz, qiyqirib kulishlarining, lolazor misol bolalik olamingiz bor, rassom NodiraXON! Qirlarda quvnashib, sayhonliklarda quvlashib yurgan ohulardek zavqu-shavqqa to'lib kelasiz tahririyatimizga! Vaqtini o'tishini qarang: axir kechagina turli-tuman o'yincholar, shirinliklar hamrohingiz edi. Axir kechagina o'z gazetangizda mening sahifalarimni hayrat bilan o'qirdingiz. Rasm va bezaklarga ziyorak nigohingizni qadardingiz. Bugun esa ancha ulg'ayib, kitobu-daftarlari qurshovidagi ikki o'g'il va bir qizingizga rasm chizish sirlarini o'rgatmoqdasi. Nafaqat o'z farzandlaringizga, balki o'z qadrondan gazetangiz orqali mamlakat bolalariga nafosat, hayrat ulashmoqdasi. Axir siz bizda bosh rassomsiz-da! Sizning siru sinoat to'la olamingizni o'z sahifamda yoritgim keldi. Chunki tug'ilgan kun bahona - 40 yoshingiz iliq so'zlar aro alvon gullarga burkansa arziydi! Yaxshisi o'zingiz haqingizda gapirib beraqo-o-ling!

Sizning «Tong yulduzi»ngiz,

O'Z O'ZBEKISTONIM BOR

hech qachon aynimaydi. Qiz bola hamisha o'z o'rnini bilib yurishi lozim», degan edi. Ushbu o'gitlar bir umrga mening qalbimga muhrlangan. Bolajonlar, sizga bir savol: Nega oltin bilan asal aynimas ekan-a? Ehtimol o'z e'tiqodiga sodiqligidandir bu? Ehtimol... bu haqda menga yozib yuboring.

FAHR

1988 yilda Chernobl falokatida jabr ko'rganlarga yordam berish maqsadida oilamiz bilan ko'ngillilar qatorida Belorusiyaga bordik. Turmush o'rtog'im Ozod aka Gomel oblastining Jlobin tumaniga evokuatsiya qilingan chernoblliklarga ko'plab imoratlar qurishda ishtirot etgan bo'lsa, men o'z kasbim - rassomchilik bilan shug'ullanardim. O'zbek diyorining tarovatini aks ettiruvchi nafis

chizgilarim bu yerliklarga yoqib qoldi. Xoh u katta, xoh u kichik bo'sin, qaysi mavzuda mo'yalam tebratmayin, dunyoni o'z chizgan rasmlarimda ko'raman. Erta tongda jilmayib turgan quyoshga salom berayotgan jajjigina qizaloqdan tortib, gullarga tinimsiz qo'nib uchayotgan kapalaklargacha hammasida o'z O'zbekistonim bor.

BOLALIGIM BARQAROR

«Tong yulduzi» gazetasini sahifalarida Siz aziz bolajonlarning quvonchushti shodliklaringizni, bilimdonuchaqyonliklaringizni, arazu-shoxliklaringizni, qo'yingchi, barcha-barcha fazilatlariningizni yuragimga jo qilib, qator yillardan buyon aks ettirib kelayotganidan juda baxtiyorman. Katta o'g'lim Ruslan 8-sinfda, Suhrob va Sevarabonular 6-sinfda tahsil olishadi, demak ular sizlarning tengdoshingiz. Shuning uchun sizlarga rasm chizishda qynalmayman. Axir uyimda ularning orzulari, quvonch va

shodliklarini his qilaman-da va... qo'limga mo'yalamimni olaman. Farzandlarim o'qish bilan birgalikda Respublika Bolalar Badiiy Ijodiyot markazida ustozlari Gulzora Sultanova va Yelena Rajabayevadan kulolchilik va grafika sirlarini qunt bilan o'rganishmoqda. Farzandlarimni chizgan rasmlarini ko'rib, ular qiyofasida o'z bolaligimni ko'raman. Nafaqat o'z bolalarimni, balki barcha bolajonlarimni murg'akkina qalblariga jo bo'lgan barcha orzu-



Nodira MUHAMMEDOVA.

GULNOZA

Tirishqoqligi, izlanuvchanligi Toshkentdag 241 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi Gulnoza Aliqulovani ko'pchilikka tanitdi.

Noyob iste'dodi bilan boshqalardan ajralib turadigan bu qizaloqqa tengdoshlari havas qilishadi.

Havas qilishsa arziyida, axir. 2000 yildan buyon Respublika

bolalar ijodiyoti markazi qoshidagi O'zbekiston Rassomlar Uyushmasi a'zosi, xizmat ko'rsatgan O'zbekiston yoshlari murabbiysi Hikmat Jalilov rahbarlik qilayotgan badiiy bezak studiyasida tahsil olib kelayotgan Gulnozaning ijodiy ishlari rang-barangligi, mavzuning boyligi, betakrorligi bilan ajralib turadi. Ona va bola, milliy bayramlar, ona tabiat mavzusidagi rasmlari bilan respublika va xalqaro miqyosdagi bolalar ko'rgazmalarida muntazam qatnashib kelyapti.

Uning mo'yalamiga mansub asarlar Hindistonda o'tkazilgan «Shankar—2001», «Shankar-2002», «Shankar-2003», Turkiyada o'tadigan «K.Otaturk», Chexiyada o'tkazilagan «Liditse-

2002», Yaponiyaning Ganagava shahrida o'tkazilgan XII Biennale tanlovida, shuningdek, respublikamiz miqyosida o'tkazilgan «O'zbekiston Vatanim manim» ko'rgazmalarida namoyish etilib, muvaffaqiyat qozongan.

Shuningdek, Respublika bolalar ijodiyot Markazida o'tkazilgan «Bolalar tafakkurida istiqlol g'oyasi», «Istiqlol g'unchalar», «Ona Vatan, senga san'atim, senga ijodim», «Navro'z keldi, nurga to'ldi jumlai jahon, g'uncha bag'rimizga bag'ishlab ilhom» - ko'rik-tanlovlarida qatnashib, birinchi va ikkinchi darajali diplomlar hamda qimmatbaho sovg'alar ham olgan.

Shu kunnalarda uning ishlari Eron, Hindiston, Misrda o'tkaziladigan bolalar ijodiyoti Xalqaro ko'rgazmasiga qo'yildi. Bu qizaloqqa biz ham ijodiy muvaffaqiyatlar tilab, O'zbek

nomin, iqtidori va san'atini butun yer yuziga yoyib, havas va hayratlarga burkashini chin dildan istaymiz.

«TONG YULDUZI»

Bugunning bolasi**HANDALAR**

-Doktor, agar sabzi ko'p iste'mol qilinsa, ko'rish qobiliyat yaxshilanarmish, shu gap rostmi?

-Bo'Imasam-chi, ko'z-oynak taqqan sabzini hech ko'rganmisiz?

-Voy, Qumri xola, kelganingiz xo'p yaxshi bo'ldi-da. Oyim sizni, shu yetishmay turuydi o'zi, deyayotgandilar.

-Bolalar, bog'cha opangiz ketyaptilar, nima deyish kerak?

-Ur-re...

Zulayho MIRZAYEVA,
Toshkent viloyati,
To'y-tepa shahridagi
26 - maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.

Ona yurting - oltin beşishing
TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Risboy JO'RAYEV,
Mirakmal MIROLIMOV,
Botir UBAYDULLAYEV
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(*Bosh muharrir o'rinnbosari*),
Po'lat MO'MIN,
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
№ 022 raqam bilan
2003yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«Ijad dunyosi»
nashriyot uyi.
Gazeta
«Ijad dunyosi»
nashriyot uyi
kompyuter bo'limida
terib sahilandi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

Toshkent matbaa kombinatida chop etildi.

Adadi - 45872
Buyurtma № J000035

Gazetani
Otobek
ESHCHANOV
sahifaladi.
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Obuna indeksi: 198

Bizning elektron pochtamiz:
ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./faks:
(99871) 144-37-24